

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“TEXNIKA” FAKULTETI

“TRANSPORT TIZIMLARI” KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI BO’YICHA

TUSHUNTIRISH XATI

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: “«NEXIA» avtomobili uzatmalar qutisining konstruksiyasini takomillashtirish va birlamchi valini tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish”

Bitiruvchi :”Avtomobilsozlik va traktorsozlik” yo’nalishi 4-bosqich talabasi: _____ **A.E.Ruzmetov**

Bitiruv malakaviy ishi rahbari: _____ **dots.B.A.Sobirov**

Kafedra mudiri: _____ **dots.I.Ruziyev**

Fakultet dekani: _____ **dots.M.Qurbonov**

Urganch -2019

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“TEXNIKA” fakulteti

“TRANSPORT TIZIMLARI” kafedrası

BITIRUV MALAKAVIY ISHINI BAJARISH BO‘YICHA T O P S H I R I Q

Ruzmetov Azizbek Egamberdi og'li

(talabaning familiyasi, ismi-sharfi)

1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: “«NEXIA» avtomobili Krivaship shatun mexanizmi konstruksiyasini takomillashtirish va shatun detalini tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish”

Universitet bo‘yicha 2018- yil «16» noyabrdagi 136-T § 13 sonli buyruq bilan tasdiqlangan.

2. Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun ma’lumotlar:

O‘zbekiston Respublikasining transport vositalarini ishlab chiqarish, undan foydalanish va texnik xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq qonun va qarorlari, ilmiy-texnik fan adabiyotlari, internet ma’lumotlari.

3. Tushintirish xatida keltiriladigan ma’lumotlar:

3.1. Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ma’ruzalari, logistik tizimni rivojlantirishga bog‘liq xukumat qarorlari, fan yangiliklari.

3.2. Mavzuning dolzarbligi. “«NEXIA» avtomobili uzatmalar qutisining mexanizmi konstruksiyasini va birlamchi valini tayyorlash texnologiyasini o‘rganish va optimal holatga keltirishning bugungi kundagi dolzarbligi.

3.3. Adabiyotlar sharxi. Mavzu bo‘yicha ilmiy-texnik adabiyotlar, gazeta, jurnal va internetdan olingan ma’lumotlarni tahlili.

3.4. Konstruksion qism. Konstruksiyaning ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlash.

3.5. Texnik qism. “«NEXIA» avtomobili tezliklar qutisining konstruksiyasi va birlamchi valining ishlab chiqarish texnologiyasini o’rganish va tavsiyalar ishlab chiqish.

3.6. Iqtisodiy qism. Tayyorlangan texnologik jarayonning iqtisodiy ko’rsatkichlarini hisoblash .

3.7. Hayotiy faoliyati xavfsizligi qismi. «NEXIA» avtomobili tezliklar qutisining konstruksiyasi va birlamchi valini ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi.

3.8. Xulosa va takliflar.Mavzu bo’yicha umumiy yakuniy xulosa va takliflar beriladi.

3.9.Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.Mavzuni tayyorlashda foydalanilgan adabiyotlar gazeta ,jurnal,internet manzillari ro’yxati.

3.10.Ilovalar.Mavzu bo’yicha olingan hujjatlar,jadvallar,rasmlar, internet,gazeta va jurnal ma’lumotlari ilova qilinadi.

4.Bitiruv malakaviy ishining chizmalari ro’yxati:

1)Chizma 1- Mavzuda berilgan uzal konstruksiyasining yig’ma chizmasi.

2)Chizma 2- Texnologiyasi ishlanadigan detallning ishchi chizmasi va detall zagatovkasining ishchi chizmasi

3) Chizma 3- Detalga ishlov berish texnologik eskizlari

4) Chizma 4- Iqtisodiy ko’rsatkichlar

5. Bitiruv malakaviy ishi qismlari bo’yicha maslahatchilar:

1	Bitiruv malakaviy ishining qismlari	Boshlanish muddati	Tugallanish muddati	Imzo	Maslahatchilarning I.F
2	Kirish	11.01.2019	27.01.2019		dots.B.A.Sobirov
3	Mavzuning dolzarbligi	01.02.2019	13.02.2019		dots.B.A.Sobirov
4	Adabiyotlar tahlili	13.02.2019	24.02.2019		dots.B.A.Sobirov
5	Konstruktiv qism	13.02.2019	24.02.2019		dots.B.A.Sobirov
6	Iqtisodiy qism	20.03.2019	31.04.2019		dots.B.A.Sobirov
7	Hayotiy faoliyati xavfsizligi	03.04.2019	14.04.2019		dots.B.A.Sobirov
8	Texnik qism	06.03.2019	17.03.2019		dots.B.A.Sobirov
9	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	15.05.2019	19.05.2019		dots.B.A.Sobirov
10	Ilovalar	24.02.2019	24.03.2019		dots.B.A.Sobirov
11	1-Chizma	27.03.2019	07.04.2019		dots.B.A.Sobirov
12	2-Chizma	21.04.2019	24.04.2019		dots.B.A.Sobirov
13	3-Chizma	03.04.2019	19.05.2019		dots.B.A.Sobirov

6.Topshiriq berilgan sana:

7.Tugallangan bitiruv malakaviy ishini topshirish sanasi

:_____

Bitiruv malakaviy ishi rahbari : _____ O.Xojayev.

Qabul qilindi: _____ Ruzmetov A.

Kafedra mudiri : _____ I.Ruziyev.

Taqrizchi: _____ Allaberganov U.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2012 yil 22-noyabrdagi «2013-2015 yillarda Xorazm viloyatining sanoat salohiyatini rivojlantirish dasturi to'g'risida» gi 1856-sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 21 fevraldagi «Xorazm viloyatida «Damas» rusumli yengil avtomobillarni ishlab chiqarishni tashkil qilish chora tadbirlari «to'g'risida» gi 51-sonli qaroriga muvofiq viloyatda «GM Uzbekistan» aksiyadorlik jamiyatining Xorazm viloyat filiali «Xorazm avto» zavodi ishga tushirildi. 2014 yilning birinchi yarmida «Damas» va «Orlando» rusumli avtomobillarni yig'ish boshlandi. Shu yilning o'zida 30,7 ming dona «Damas» va «Orlando» avtomobillari ishlab chiqarildi. Bundan tashqari, yurtimizdagi kichik biznes egalari va xususiy tadbirkorlarga qulaylik yaratish maqsadida o'tgan yilning oxirida «Labo» avtomobilini ishlab chiqarish ham yo'lga qo'yildi. Avtomobilsozlik sohasida ilg'or tajribaga ega "General Motors" korporatsiyasi bilan hamkorlik aloqalari sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, xodimlar malakasini oshirish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish uchun sharoit yaratish bilan bir qatorda iste'molchilarning tanlash imkoniyatlarini ham kengaytirmoqda. "GM-Uzbekistan " YoAJ mamlakatimiz avtomobilsozlik sanoatini va umuman yurtimiz iqtisodiyotini yanada taraqqiy ettirishga salmoqli hissa qo'shmoqda. Mahalliylash-tirish dasturiga kiritilgan korxonalarda ishlab chiqarilayotgan butlovchi qismlar belgilangan talablar asosida texnik shartlar tayyorlaniladi va bu asosida mahsulot ishlab chiqarilishidan to yetkazib berilishigacha bo'lgan me'yorlarni o'z ichiga oladi. Shu jarayonlardan biri bu ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sinash jarayonidir. Mahsulotni sinash orqali u belgilangan talablarga javob berishi yoki bermasligi aniqlanadi. Bu esa mahsulotni sifatini oshishiga olib keladi. Ushbu bitiruv malakaviy ishida yengil avtomobillar turkumiga kiruvchi Nexia avtomobili tezliklar qutisining konstruksiyasi va birlamchi valini ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish (birlamchi val) mavzusi bo'yicha ish olib bor

2. MAVZUNING DOLZARBLIGI

Avtomobil ishlab chiqarishning barcha texnologik jarayonlari kompleks ravishda rivojlantirilishi Yurtimizda mashinasozlik, metallurgiya, radioelektronika, neftni qayta ishlash, kimyo va to'qimachilik sanoatini, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini taraqqiy ettirishga yordam bermoqda. Hozirgi kunda «O'zavtosanoat» aksiyadorlik kompaniyasi tarkibidagi 30 ga yaqin korxonalar Avtomobil zavodi uchun butlovchi materiallar yetkazib beradi. Hozirgi zamon, taraqqiyot asri ishlab chiqarilayotgan avtomobil modellarini muttasil o'zgartirib, sifatini yaxshilab borishni taqozo etadi. Chunki kuchli raqobat sharoitida muayyan mamlakat bozoriga kirib borish, joy egallash va uni saqlab turish oson emas. Shu ma'noda, O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan mashinalarning xorijda xaridorini topayotgani e'tirofga loyiq. Bunga O'zbek avtomobillarining puxta, ishonchli va tejamkorligi, «Evro-4» Xalqaro ekologik standartlarga to'la javob berishi sababdir. 2013 yildan boshlab esa zavod konveyerlaridan «Evro-5» Xalqaro ekologik standartlarga to'la javob beradigan avtomobillar chiqarila boshlandi.

Shuning uchun men "Nexia avtomobili tezliklar qutisining konstruksiyasi va birlamchi valini ishlab chiqarish texnologiyasi" mavzuyim tezliklar qutisi birlamchi valini ishlab chiqarish texnologiyasi va konstruksiyasini optimal shakilga keltirish. Ish davomida shu konstruksiyani va ishlab chiqarish texnologiyasini optimallashtirishga harakat qildim. Tezliklar qutisi birlamchi valini NEXIA avtomobili muxim detallaridan biri desam xato bo'lmaydi. Chunki bu birlamchi vali har xil iqlim va yo'l sharoitlarida ishlaganligi tufayli ularga ko'plab tasirlar bo'lib turadi.

Oxirgi 25 yil ichida engil avtomobil o'rtacha 10% kichkina, 20% ga engil va 4 marta xavfsiz bo'ldi. Har xil yangi tizim va komponentlarni qo'llash natijasida avtomobil yanada puxta, qulay, tejamkor va shinam bo'ldi. Mavzuning dolzarbligi shundaki avtomobilsozlikda ishlab chiqarilayotgan barcha avtomobillar uchun tezliklar qutisi birlamchi valini ishlab chiqarish texnologiyasini optimal variantini topishdan iborat. Avtomobillarni ishlab chiqarish kundan kunga ko'payib bormoqda, bularni sifat ko'rsatgichlariga talab oshmoqda va konstruksiyalari o'zgarib turibdi. Shu o'zgarish sharoitida va sifat oshirish sharoitida demak menga berilgan "Nexia

avtomobili tezliklar qutisining konstruksiyasi va birlamchi valini ishlab chiqarish texnologiyasi”ga shunday o’zgarishlar kiritishimiz kerakki, bu optimal texnologiya bo’lishi kerak. Arzon va sifatli maxsulot bera oladigan texnologiya bo’lishi kerak. Shuning uchun men texnologiyasini sodda va sifatli qilib narxini past qilsam shu darajada maxsulotimiz bozorbob va raqobatbardoshligi baland bo’ladi. Mana shu ijodiy faollikni yanada rivojlantirish uchun talabalarni o’z ustida ko’proq ishlatish zarur deb o’ylayman. Chunki talaba qanchalik o’zi o’rganayotgan sohasiga nisbatan faollroq harakat qilib, o’zini ustida mustaqil ishlab, kelajak sari o’zining bilimlari bilan olg’a qadam tashlab intilsagina talabaga berilayotgan ma’lumotlar miqdori o’qituvchi talabadan olayotgan ma’lumotlar miqdoridan bir necha barobar ortadi. Shularni e’tiborga olib men ushbu Bitiruv malakaviy ishimni “Nexia avtomobili tezliklar qutisining konstruksiyasi va birlamchi valini ishlab chiqarish texnologiyasi” mavzusida bajarishni o’z oldimga maqsad qilib oldim va men bu tezliklar qutisi birlamchi valini ishlab chiqarish texnologiyasi tayyorlash orqali shu kungacha olgan bilimlarimni amalda qo’llash imkoniyatiga ega bo’laman va Nexia avtomobili tezliklar qutisining konstruksiyasini yanada yaxshilash, Nexia avtomobili tezliklar qutisining konstruksiyasi haqida yetishmayotgan malumotlarni yanada boyitishni o’z oldimga maqsad qilib oldim. Ishning asosiy maqsadi tezliklar qutisi birlamchi valini ishlab chiqish texnologiyasini tashkil etish va ishlab chiqishda duch keladigan muammolarni yechish, loyihani ishlab chiqish va amalga oshirish bosqichlarining eng optimal yo’llari yuzasidan amaliy taklif – tavsiyalarni yaratishdan iborat.

3. ADABIYOTLAR SHARXI

Bitiruv malakaviy ishini bu bo'limida yengil avtomobillar turkumiga kiruvchi Neksiya avtomobili tezliklar qutisining konstruksiyasi va Birlamchi valini ishlab chiqarish texnologiyasiga doir adabiyotlarni tahlil qilamiz, shuningdek, tezliklar qutisi birlamchi valining turlari bilan tanishib ularning afzallik va kamchiliklari bilan tanishamiz. Tezliklar qutisining birlamchi valini ishlab chiqarish texnologiyasiga doir Bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati sharxlab o'tamiz.

O'zbekiston avtomobil sanoatini rivojlantirish maqsadida Respublikamizning birinchi prezidenti I.A. Karimov tashabbuslari bilan qisqa muddat ichida vatanimizda butkul yangi tarmoqda yuksak texnologiyalarga asoslangan istiqbolli avtomobil ishlab chiqarish zavodi barpo etildi. Xalqaro talablarga to'la javob beradigan yuqori malakali mutaxassislarning yangi avlodi tarbiyalandi. Respublikamiz transport tizimida avtomobil transporti yetakchi o'rinlardan birini egallab, avtomobil transporti sanoatning rivojlanishiga olib kelmoqda. Shu sababli «Avtomobil sanoati Respublikamiz iqtisodiyotining tayanchlaridan biridir» degan edi prezident I.A. Karimov.

B.A. Sobirov, O.X. Xojayev, F.X. Mavlonov "Mashinasozlik texnologiyasi asoslari" fanidan kurs ishini bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma. Bu qo'llanma-dan ishlab chiqarish texnologiyasini aniqlashda va xisoblashda foydalandim. Shuningdek texnologiyani tuzish masalalari umumiy batavsil shu kitobda ko'rib o'tilgan.

F.V. Gurin, V.D. Klepikov, V.V. Reyn. "Avtomobilsozlik texnologiyasi" darsligi 1-kitobida avtomobil va traktor detallarini tayyorlash texnologik jarayonlarini loyihalashning asosiy qoidalari bo'yicha, asosiy tushunchalar, zagatovka turlari va ularni yasash, asos va uning turlari, kesib ishlash aniqligi, yuza sifati, kesib ishlov berish uchun qo'yim, konstruksiyaning texnologiyabopligi, detallar zagatovkasi yuzasiga ishlov berish usullari, kesib ishlov berish mos-lamalari, kesib ishlash texnologik jarayonlarini loyihalash, kesib ishlash texnologik jarayonlarini avtomatlashtirish kabi boblarda mavzular to'la yoritilgan.

Hususan yengil avtomobillar transmisiyasi konstruksiyasi haqida S. M. Qodirov, Q. N. Do'stmuhamedov "Avtomobilsozlik texnologiyasi" kitobda shu detal konstruksiyasi uncha aniq yani yaxshi yoritilmagan faqat umumiy qilib aytib o'tilgan lekin avtomobillar transmisiya haqida juda yaxshi malumotlar bergan. Lekin X. MAMATOV "AVTOMOBILLAR" kitobida avtomobillar trans-misiyasi konstruksiyasi haqida va shu konstruksiyadagi detallar haqida juda yaxshi malumotlar bergan. Bu ikkita adabiyotda transmisiya va shu transmisiya orqa osma podshipnik tanasi haqida malumotlar keltirilgan. Bir adabiyotlarda ishlab chiqarish texnologiyasi haqida to'liq malumot berilgan yana birisida esa transmisiya va shu detal konstruksiyasi haqida to'liq va tushunarli qilib malumotlar keltirilgan.

X.Mamatov "Avtomobillar" 1-qismida avtomobil mexanizmi va tarmoq-larining vazifasi, umumiy tuzilishi, ishlash uslubi hamda konstruktiv xususiyatlari hamda avtomobillarning elektr va elektron jihozlari bo'yicha asosiy ma'lumotlar bayon etilgan. Kitobning har bir bobidan so'ng, programmalashtirilgan topshiriqlar berilgan bo'lib, ularning yechimlari talqin etilgan.

X.Mamatov "Avtomobillar" kitobining 2-qismida hozirgi vaqtda jamiya-timizda ko'p tarqalgan avtomobillarning konstruksiyasi misolida ularning shassisiga kiruvchi qismlari tahlil va talqin etilgan. Shuningdek, unda xususan avtomobilning shassiga taalluqli bo'lgan kuch uzatma, yurish va boshqarish qismlariga kiruvchi tizim va mexanizmlarning vazifasi, ishlashi va ishlash sharoiti tavsiflangan bo'lib, ularning konstruktiv xususiyatlari esa taqqoslash uslubi orqali bayon etilgan. Bundan tashqari avtomobillarni umumiy tuzilishiga oid bo'lgan kuch uzatmasi tarkibiga kiruvchi asosiy uzatma, differensial va yarim o'qlarning konstruktiv xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan.

E.Fayzullaev va boshqalar "Transport vositasining tuzilishi va nazariyasi" kitobida zamonaviy avtomobillarning konstruktiv yangiliklarini va mamla-katimizda ishlab chiqarilayotgan "Tiko", "Nexia", "Damas", "Matiz" yengil avtomobillari va "Uzotayo'l" yuk avtomobillari bundan tashqari VAZ, GAZ, KamAZ avtomobillari konstruksiyasi misolida avtomobilning asosiy qismlari, mexanizm va sistemalarining

vazifasi, tuzilishi, ishlash printsiplari, turlari hamda konstruktiv xususiyatlari batafsil bayon etilgan.

A.A. Akilov, A.A. Qahhorov, M.X. Sayidov “Avtomobilning umumiy tuzilishi” kitobida Avtomobilning umumiy tuzilishi darsligi «V» toifali avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlash o`quv dasturiga asosan yozilgan bo`lib, IIV oliy ta`lim muassasalarida Avtomobil tayyorgarligi fanini o`qitish uchun mo`ljallangan. Darslikda avtomobilsozlikning tarixi, rivojlanish bosqichlari, tuzilishi, texnik (servis) xizmat ko`rsatish va ta`mirlash, tizim va mexanizm-larning tuzilishi, ishlashi hamda ularda uchraydigan ayrim nosozliklar bayon etilgan.


Q.M. Sidiqnazarov va boshqalar “Avtotransport sohasidagi yangiliklar” o`quv qo`llanmasida avtomobil transporti haqida tushuncha, avtomobil transportining ahamiyati va mamlakat iqtisodiyotida tutgan o`rni, avtotransport vositalarining rivojlanishini yangi bosqichlari, avtotransport vositalari ishlab chiqarish tarmog`idagi yangi yo`nalishlar, avtotransport vositalari konstruksiyasini rivojlanishidagi yangi yo`nalishlar, avtomobillarning xususiyatlarini o`zgarish yo`nalishlari avtomobillar konstruksiyasi va ishonchliligi o`zgarishini texnik ekspluatatsiyaga ta`siri transport vositalarining ekspluatatsiyasini samaradorligi, avtotransport vositalarini ekspluatatsiyasida yangi chora tadbirlarni joriy etishdan olinadigan iqtisodiy samaradorlik ko`rsatkichlari kabi tushunchalar yoritilgan.

—GM-Uzbekistan YOAJ qo`shma korhonasi o`zi ishlab chiqargan avtomobillari haqida foydalanuvchilar uchun qator ma`lumotlarni ishlab chiqqan va nashr etgan. Har bir avtomobil uchun bittadan qo`llanma, avvalo, ekspluatatsiyasharoitiga avtomobilni tayyorlashdan boshlanadi u bo`limda avtomobilni nomerlangan kaliti, undan to`g`ri foydalanish shartno-malarini tushintirib o`tadi va bir qancha eslatmalar belgilab beradi. Qo`llanmaning keyingi bo`limlarida harakat paytida havfsizlik texnikasi bilan tanishtiradi. Avtomobil dvigatel uzatmalar qutisi, salonning tuzilishi panelini ko`rinishlari, har bir hisobchilar, audisistema haqida to`la ma`lumot va boshqa diagnostika vositalari haqida kerakli ma`lumotlar beradi. Demak, qo`llanma haydovchilar uchun juda kerakli va foydalanish uchun ancha qulay bo`lgan kitobcha hisoblanadi.


4. KONSTRUKTORLIK QISM

4.1 Uzatmalar qutisi vazifasi

Uzatishlar sonini ko'paytirish yoki kamaytirish yo'li bilan avtomobil harakat tezligini va yetaklovchi g'ildiraklardagi tortish kuchini miqdorini oshirish yoki kamaytirish(6 a,b-rasm); dvigateldan kelayotgan burovchi momentni yo'nalishini o'zgartirish (avtomobilni orqaga yurishini ta'minlash);dvigatel tirsakli valini yetakchi g'ildiraklardan uzoq muddatga ajratib qo'yishni ta'minlaydi.



a



b

Uzatmalar qutisining noqulay yo'l sharoitlarida ishlashi(6-rasim).

a-uzatmalar qutisini past tezlikka sozlash va burovchi moment kuchini oshirish orqali nishablika chiqish.

b-uzatmalar qutisini yuqori tezlikka sozlash va burovchi moment kuchini kamaytrib qiyalikdan tushish.

Uzatmalar qutisining uzatishlar soni uning yetakchi va yetaklanuvchi vallari-ning aylanish chastotalarining nisbatiga teng.

Uzatishlar sonini o'zgartirishning zarurligi, yo'l sharoitiga bog'liq bo'lgan avtomobil harakatiga qarshilik kuchlari keng diapazonda o'zgaradi, porshenli dvigatelning burovchi momenti esa, eng yuqori yonilg'i uzatilganda, bor yo'g'i 10-30% ga o'zgarishi mumkin.

Avtomobil joyidan o'zalishida tez tezlanish olish uchun va harakatiga sezilarli qarshilik kuchlarini yengish uchun, masalan to'liq yuk bilan yuqoriga harakat

qilganda, dvigatelning maksimal momentiga to'g'ri keladigan qiymatga qaraganda tortish kuchi bir necha bor katta bo'lishi kerak.

Tortish kuchini bunday kupaytirishni uzatishlar sonini o'zgartirish bilan ta'minlanadi.


4.2 Uzatmalar qutisining turlari

Uzatishlar sonini o'zgartirish tavsifiga binoan uzatmalar qutisining pog'onali, pog'onasiz va aralashturlarga bo'linadi.

Yetakchi va yetaklanuvchi vallar orasidagi bog'lanish tavsifiga asosan uzatmalar qutisi mexanik, gidravlik, elektrik, aralash, boshqarish usuli bo'yicha esa avtomatik va mexanik turlarga ajratiladi.


Pog'onali uzatmalar qutisi oldinga yurishdagi uzatishlar soni bo'yicha farqlanadi. Pog'onali mexanik uzatmalar qutisi. Tishli mexanizmli pog'onali mexanik uzatmalar qutisi hozirgi kunda juda keng tarqalgan. Bunday uzatmalar qutisidagi o'zgartirilayotgan uzatishlar soni, odatda 4-5, ba'zida esa 8 va undan ko'p qiymatgalarga ega bo'ladi. Uzatmalar qutisining burovchi momenti kuchi va tezligi yetakchi va yetaklanuvchi tishlari soni va shesterna diametriga chambarchas bog'liq va quyidagicha tajriba orqali buni ko'rip chiqamis.

Uzatishlar soni bo'yicha uzatmalar qutisi turlari.



Uzatishlar soni uch bo'lgan uzatmalar qutisi (1-rasm)


1-birlamchi val; 2-ikkilamchi val; 3-oraliq val; 4-orqa yetakchi shesterna; 5-vilkalar; 6-sinxranizatorli yetakchi shesternalar; 7-orqa yetaklanuvchi shesterna; 8-birinchi tezlik shesternasi 9-ikkinchi tezlik shesternasi; 10-uchinchi tezlik shesternasi.



Uzatishlar soni to'rt bo'lgan uzatmalar qutisi(2-rasm)

1-birlamchi val; 2-ikkilamchi val; 3-oraliq val; 4-sinxrinizator;

Sinxrinizatorning vazifasi tezlik almishtirganda uzatmalar shovqinsiz ulanip ajralishini taminlash va uzatmalarni onson ilashishi va oson ajralishini taminlaydi uzatmalar qutisi oldinga yurishdagi uzatishlar soni bo'yicha farqlanadi. Pog'onali mexanik uzatmalar qutisi. Tishli mexanizmlil pog'onali mexanik uzatmalar qutisi hozirgi kunda juda keng tarqalgan. 4- pog'onali uzatmalar qutisi 3-pog'onali uzatmalar qutisiga nisbatan ancha takomillashgan va ko'pgina avtomabil turlarida foydalaniladi Bunga mison qilib Damasning dastlabki modelida ko'rishimiz mumkin



Uzatishlar soni besh bo'lgan uzatmalar qutisi(3-rasm)

Neksiya avtomabili uzatishlar sonini xar bir uzatish tezligi uchun ko'rip chiqamis

N-uzatishlar soni; **Z**-tishlar soni; **i**-uzatishlar nisbati;

1-uzatma uchun.

$$N_1 = Z_{3-1}/Z_{4-1} = \frac{44}{16} = 2,75$$

$$i = M_{step1} * M_{M_{step2-1}} = 4,125$$

2-uzatma uchun.

$$N_2 = Z_{3-1}/Z_{4-1} = \frac{35}{25} = 1,5$$

$$i = M_{step1} * M_{M_{step2-2}} = 2,1$$

3-uzatma uchun.

$$N_3 = Z_{3-3}/Z_{4-3} = \frac{30}{30} = 1$$

$$i = M_{step1} * M_{M_{step2-3}} = 1,5$$

4-uzatma uchun.

$$N_4 = Z_{3-5}/Z_{4-5} = \frac{20}{40} = 0,5$$

$$i=1$$

5-uzatma uchun.

$$N_5 = Z_{3-5}/Z_{4-5} = \frac{20}{40} = 0,5$$

$$i = M_{step1} * M_{M_{step2-5}} = 0,75$$

R- orqa uzatma uchun.

$$N_R = (Z_{3-R}/Z_R) * (Z_R/Z_{4-R}) = \left(\frac{15}{15}\right) \left(\frac{40}{15}\right) = 2,667$$

$$i = M_{step1} * M_{M_{step2-R}} = 4$$

Uzatishlar	Uzatishlar soni	Uzatishlar nisbati
1-uzatma	2,75	4,125
2-uzatma	1,5	2,1
3-uzatma	1	1,5
4-uzatma	0,75	1
5-uzatma	0,5	0,75
R-orqa uzatma	2,667	4

Uzatishlar soni qanchalik ko'p bo'lsa, dvigatel quvvatidan shunchalik yaxshi foydalaniladi ravonilgi tejamkorligi ham ortadi, biroq bunda uzatmalar qutisining konstruksiyasi murakkablashadi, vazni og'irlashadi, o'lchamlari oshadi va mavjud harakat sharoitlari uchun optimal bo'lgan uzatmalarni tanlash qiyinlashadi.

Avtomobil uzatmalar qutisining tishli mexanizmlari odatda silindrik tishli g'il-diraklardan iborat va qo'zg'almas geometrik o'qli yoki planetar qilib tayyorlanadi.

Ikkita ilashib turgan tishli g'ildiraklarning kichigini shesternya, kattasini g'ildirak deb ataladi (4-rasm).

4.3 Uzatmalar qutisining Ishlash prinsipi

Tishli uzatmalarda burovchi moment miqdori va yo'nalishi har xil tishlar soniga ega bo'lgan tishli shesternya va tishli g'ildiraklarni o'zaro ilashishi hisobiga turli miqdordagi uzatishlar sonini hosil qilish hisobiga amalga oshiriladi tishli shesternya A dan tishlig'ildirak B ga burovchi moment uzatilganda uning miqdori 2 marotaba oshadi, chunki uzatishlar soniga teng, lekin ikkinchi valning aylanishlar soni 2 marotaba birinchi valning aylanishlar soniga nisbatan kamayadi (4-rasm).


Uzatmalar qutisi tezliklarni ulash va ajratishda tavsiya etiladigan tezlik(km/soat)

Uzatmalar №	Uzatmaning tavsiya etiladigan tezlik (km/soat)
1-uzatma	0 km/soat dan 20 km/soat (qo'zg'alib olish uchun)
2- uzatma	20 km/soat dan 40 km/soat gacha
3- uzatma	40 km/soat dan 60 km/soat gacha
4- uzatma	60 km/soat dan 90 km/soat gacha
5- uzatma	90 km/soat va undan katta tezliklarda
R-orqa uzatma	orqaga qo'zg'alish va 30km/soat gacha

Uzatmalar qutisida bir nechta yetaklovchi va yetaklanuvchi tishli shesternya va tishli g'ildiraklar o'rnatish hisobiga bir nechta uzatishlar sonini olish mumkin.

Masalan, (4a,b-rasm) yetaklovchi, valga dvigatelning tirsakli validan kelayotgan burovchi moment tishli shesternya (yetaklovchi)dan tishli g'ildirak (yetaklanuvchi) ga o'tganda 2 marta oshadi yetaklanuvchi valning aylanishlar soni esa 2 marta kamayadi, so'ngra ikki marta oshgan burovchi moment yetaklovchi shesternyadan yetaklanuvchi tishli g'ildirakka o'tganda uning qiymati ikki marta oshadi, lekin yetaklanuvchi valning aylanishlar soni ikki marta kamayadi.


Dvigateldan kelayotgan burovchi momentning umumiy miqdori uzatmalar qutisidan uzatilganda marta oshadi, valning aylanishlar soni esa marta kamayadi.



4-rasm. Uzatishlar sonining o'zgarishi.

Xuddi shu tarzda pog'onalar sonini oshirish hisobiga turli miqdordagi Uzatishlar sonini olish mumkin va turli yo'l sharoitiga mos ravishda yetakchi g'ildiraklardagi burovchi momentni va avtomobil harakat tezligini ta'minlash mumkin.

Dvigateldan kelayotgan burovchi momentning yo'nalishini o'zgartirish sxemasi 5-rasmda keltirilgan. Dvigateldan kelayotgan burovchi moment birlamchi (yetaklovchi) val, shesternyadan oraliq valga uzatiladi, so'ngra burovchi moment orqa yurishni ta'minlash shesternyasidan o'tadi va o'z yo'nalishini o'zgartiradi, yo'nalishi o'zgargan burovchi moment (yetaklanuvchi) ikkilamchi valdan yetaklovchi g'ildiraklarga yetkaziladi.



5-rasm. Burovchi moment yo'nalishining o'zgarishi.

Tishli g'ildiraklarning qo'zg'almas o'qli uch valli uch pog'onaliuzatmalar qutisining sxemasini (4-rasm) ko'rib chiqamiz. Yetakchi,yetaklanuvchi va oraliq vallar, yetakchi va yetaklanuvchi vallar qutida podshipniklarda o'rnatilgan. Yetakchi bilan doimiy ilashishlikda turgan shesternya qattiq qotirilgan. Boshqa shesternyalar xuddi shunday oraliq valda qattiq qotirilgan. Yetaklanuvchi valning g'ildirak koretkasi val bilan shlitsalar yordamida shunday birlashtirilganki, uni val bo'yicha

surish mumkin. Xuddi shunday, yetaklanuvchi valdagi tishli muftani val bo'ylab siljitish mumkin. Tishli g'ildirak bu valda erkin o'rnatilgan va shesternya bilan doimiy ilashishda bo'ladi.

4.4 Uzatmalar qutisining konstruksiyasi

Turt pogonali uzatmalar qutisi. Zamonaviy yengil avtomobillarning ko'pchiligida turt va besh pogonali, uch valli uzatmalar qutisi o'rnatilgan. Masalan, GAZ-24 "Volga" avtomobilida oldinga yurish uchun to'rtta va orqaga xarakatlanishga bitta uzatma muljallangan. Bunday uzatmalar qutisining uch yulli deb ataladi, chunki ikkita sinxronizator va bitta kuzgaluvchi orqaga yurgizish shestyernya orqali uzatmalarga tushiriladi. Uzatmalar qutisining kartyerida uchta val yetaklovchi (birlamchi), yetaklanuvchi (ikkilamchi) va oraliq vallari xamda orqaga yurgazish shestyernyasining o'qi joylashgan. Yetaklovchi valning ikki uchi ikkita sharikli podshipniklarga tayangan bo'lib, oldingi uchi tirsakli valning flanetsidagi uyiqlashda joylashgan podshipnikda, ketingi uchi esa uzatmalar qutisi kartyerining oldingi devorchasida joylashgan podshipnikda yotadi. Birlamchi val qiya tishli shestyernya bilan yaxlit ishlangan bo'lib, oraliq valdagi shestyernyalar blokining yetakchi shestyernyasi bilan doimo tishlashib turadi. To'g'ri uzatmani ulash uchun birlamchi val shestyernyasining orka qismida tishli gardish ishlangan. Birlamchi valning sharikli podshipnigi yon kopkok bilan boltlar yordamida berkitilgan. Oraliq val to'rtta qiya tishli shestyernyalar va bitta to'g'ri tishli shestyernyadan iborat shestyernyalar bloki va bitta to'g'ri tishli shestyernyadan iborat shestyernyalar blokini tashkil etadi va uz uqida uchta ninasimon (birinchisi o'qning old qismida, ikkinchi va uchinchilari esa uning ketingi kismida ketma-ket joylashgan) podshipniklarda o'rnatilgan. O'qning orqa uchidagi diskli kaydlagichi uning o'z o'qida buralib ketishidan saklaydi. Yetaklanuvchi val xam uzunasiga ikkita tayanchga tayangan bo'lib, oldingi uchi birlamchi valning orqa tomonidan chukurchasiga kiritilgan rolikli podshipnik ketingi uchi esa uzatmalar qutisi kartyerining devorchasiga joylashtirilgan sharikli podshipnikda o'rnatilgan. Yetaklanuvchi valning shlotsli qismlariga birinchi, ikkinchi, uchinci va turtinchi uzatmalarni ulash uchun qullaniladigan sinxronizatorli muftalar o'rnatilgan. Valning jilvirlangan buyinchalariga esa oralik val shestyernyalari bilan

doimo tishlashgan, qiya tishli shestyernyalar vtulkada erkin uz uki atrofida aylana oladigan kilib joylashtirilgan. Avtomobilni oldinga xarakatlantirish uchun muljallangan xamma uzatmalar, ya'ni I, II, III va IV uzatmalar sinxronizatorlar yordamida, orqaga yurish uzatmasi esa shestyernyani surish yuli bilan bajariladi.

Neksiya, Tiko va Spark avtomobillarida uzatmalar qutisining asosiy farqi vallarining soni uchta emas, balki ikkitaligida yetakchi va yetaklanuvchi. Yetaklanuvchi valning o'ng uchida u bilan yaxlit ishlangan silindrsimon shestyernya bor. U differentsial qutisining yarim kosachasiga urnatilgan tishli gildirak bilan doimo tishlashib turadi va bu mexanizm old yurituvchi kuprikda asosiy uzatma vazifasini o'taydi. Yetakchi val shestyernyalari valga kuzg'almas qilib o'rnatilgan bulib, yetaklanuvchi val shestyernyalari bilan muhim tishlashib turadi. Chunki bu shestyernyalar valning o'q qilib ishlangan qismlariga erkin aylanadigan qilib o'rnatilgan. Bu shestyernyalar orkali burovchi moment uzatish jarayoni ikkilamchi valga shlotsali kilib urnatilgan sinxronizatorlar yordamida bajariladi. Orqaga yurgazish pog'onasini ulash uchun esa shestyernya va sinxronizator muftasining tishli gardishi oraliq tishli g'ildirak bilan tishlashtirish yuli bilan amalga oshiriladi.

Asosiy uzatmalar, ilashishdagi tishli g'ildiraklarning soniga qarab yakka yoki qo'shaloq bo'lishi mumkin. Yakka uzatma bir juft tishli g'ildirakdan, ko'shaloq uzatma esa ikki juft tishli g'ildiraklardan iborat. Yakka uzatmalar o'z navbatida silindrik, konussimon, gipoidli yoki chervyakli bo'lishi mumkin. Qo'shaloq uzatmalar esa, odatda, bir juft konussimon va bir juft silindrik tishli g'ildiraklardan tashkil topib, ular o'z navbatida ko'priki o'rtasida yaxlit joylashgan markaziy uzatma yoki ikki qismga bo'lingan, ajratilgan uzatma bo'lishi mumkin. Yakka uzatmalar ko'pincha yengil yoki o'rtayuk avtomobillarida qo'llaniladi. Dvigateli oldida va yetakchi ko'prigi orqada joylashgan kompanovkali avtomobillarda konusli yoki gipoidli uzatmalar ishlatiladi. Kompanovkasi old yuritmal bo'lgan yengil avtomobillarda (Neksiya, Tiko, MATIZ, VAZ-2108, VAZ-2109) silindrik uzatmalar qo'llanilmoqda. Konussimon asosiy uzatmaning ishlashidagi o'ziga xos xususiyatlari val tayanchlariga o'zaro perpendikular bo'lgan uchta yuzada katta kuchlarni ta'sir etishidir. Bu kuchlar ta'sirida tishli g'ildiraklarning vallari o'qi

bo'ylab siljishga intiladi. Bundan tashqari yetakchi tishli g'ildiraklarning tayanch podshipniklari valning bir tomonida joylashganligi, uzatmaning ishlashida tishlarga ta'sir etuvchi kuchlarning notekis taqsimlanishiga, bu esa qo'shimcha dinamik kuchlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Konussimon asosiy uzatmaning uzoq muddat ishlashi uchun tishlarning boshlang'ich konususchlari (vershina) 0 nuqtada bo'lgan holda ularning ilashishi talab etilgan aniqlikda bo'lishi shart. Boshlang'ich konus uchlarining siljishi uzatmaning ishlash sharoitini tez yomonlashtirib yeyilishini tezlashtiradi va shovqinini oshiradi. Tishli g'ildiraklarning aniq ilashishini, shuningbilan, ishonchli ishlashini ta'minlash maqsadida ularning podshipniklari oldindan tig'izlab o'rnatiladi va karterining bikrligi oshiriladi. Bundan tashqari o'tuvchanligi yuqori bo'lgan yengil avtomobillarda, shuningdek, yuk avtomobillarida qo'llanilgan konussimon yoki gipoidli uzatmalarda, katta yuklanishda ishlaganda, ilashishning aniqligini saqlash maqsadida yetakchi tishli g'ildirak valiga va yetaklanuvchi tishli g'ildirakka qo'shimcha tayanchlar ishlanadi. O'qlarining bir-biriga nisbatan bunday joylanishi kardanli uzatmaning orqa uchini pastroq tushiradi, bu esa o'z navbatida avtomobilning og'irlik markazini pasaytirib, uning turg'unligini oshiradi. Bundan tashqari, gipoidli uzatmada tishlarning spiral burchagi katta bo'lgani uchun, ularning uzunliga ham katta bo'lib, bir vaqtda ilashib turgan tishlarning soni konussimon uzatmaga qaraganda ko'p bo'lib, ilashib turgan tishlarning har biriga to'g'ri keladigan yukni kamaytiradi. Uzatish soni va yetaklanuvchi tishli g'ildirak diametri bir xil bo'lgan, ikki xil uzatmalar taqqoslanganda gipoidli uzatmada yetakchi tishlig'ildirakning diametri konussimon uzatmadagi yetakchi tishli g'ildiraknikiga qaraganda kattaroq, ya'ni bikrligi yuqoriroq bo'ladi. Bularning barchasi gipoidli uzatmaning afzalligi hisoblanib, uning mustahkamligini va uzoq muddat ishonchli shovqinsiz, ravon ishlashini ta'minlaydi. Uzatmaning kamchi-liklari g'ildirak tishlarining spirall burchagi katta bo'lganligi tufayli tish sirtlari o'zaro sirpanib ishlaydi, natijada ular nisbatan tez yeyiladi, yeyilishni oldini olish uchun sirpanib ishlayotgan tishli sirtlarida mustahkam moy qatlami hosil qiladigan maxsus gipoidmoy-idan foydalanish kerak. Bundan tashqari, bu uzatmaning tishli g'ildiraklarini tayyorlash nisbatan qiyin, ularni yig'ishdagi

aniqlik darajasi yuqori, chunki kichik noaniqlikning ta'siri tez seziladi. Lekin shunga qaramay, bu kamchiliklar gipoidli uzatmaning afzalliklariga hechqanday zarar yetkazmaydi. Chervyakli asosiy uzatmalar tishli g'ildirakli uzatmalardan o'zining ixchamligi va shovqinsiz ishlashi bilan farqlanadi. Ammo bu uzatmaning F.I.K. konusli va gipoidli uzatmalarga nisbatan kichik va uni tayyorlashda qimmat metall (bronza) ishlatilganligi sababli avtomobillarda deyarli qo'llanilmaydi. Differensialning vazifasi va turlari. Ma'lumki, avtomobil burilayotganda uning g'ildiraklari har xil yo'l bosib turli chastotada aylanadi. Masalan, avtomobil burilayotganda uning tashqi g'ildiraklari ichki g'ildiraklariga qaraganda ko'proq yo'l bosib tez aylanadi.

G'ildiraklarni bunday turli chastotada aylanishi avtomobilning notekisliklarda (to'g'ri yo'nalishda) harakatlanganda, shuningdek, g'ildiraklar har xil diametrga (shinalarning yeyilishi yoki havo bosimiturlicha bo'lganda) ega bo'lganda ham ro'y beradi. Yetakchi bo'lmagan oldingi g'ildiraklarni bir-biriga nisbatan turli chastotada mustaqil aylana olishini ta'minlash uchun ularni o'zaro bog'liq bo'lmagan o'qlar(sapfalar)ga o'rnatilgan bo'ladi. Yetakchi g'ildiraklarga esa burovchi moment asosiy uzatmadan uzatiladi. Agar burovchi moment g'ildiraklarga bitta umumiy val orqali uzatilgundek bo'lsa, avtomobil bural-yotganida uning g'ildiraklari turli chastotada aylana olmasdan yo'lga nisbatan sirpana boshlaydi. Shuning uchun yetakchi g'ildiraklarni bitta butun valga o'rnatilmasdan, har biri mustaqil aylana oladigan vayarim o'q deb nomlangan alohida-alohida vallarga o'rnatiladi. Demak, differensialning vazifasi avtomobilning burilishida yoki notekisliklarda harakatlanganida burovchi momentni yetakchi g'ildiraklarga taqsimlash bilan ularni turli tezlikda aylana olishini ta'minlashdir. Avtomobillarda asosan shesternyali va kulachokli differensiallar ishlatiladi. Shesternyali differensiallar konstruksiyasi bo'yicha birmuncha oddiy. Avtomobillarda konussimon shesternyali differensiallar keng tarqalgan bo'lib, u differensial qutisi, sotollitlar, yarim o'q shesternyalari tashkil topgan. Yarim o'q shesternyalari yarim o'qlar orqali yetakchi g'ildiraklar bilan ulangan. Differensial planetar mexanizm bo'lib, uning yetakchi zvenosiga differensial qutisi, yetaklanuvchi zvenosiga esa

o'lchamlari bir xil bo'lgan yarim o'q shesternyalar va kiradi. Differensiallar Transmissiyada o'rnatilish joyiga qarab g'ildiraklar aro (burovchi momentni bir ko'priqdagi yetakchi g'ildiraklarga taqsimlash) va o'qlararo (4x4; 6x4; 6x6 rusumli avtomobillarda burovchi momentni yetakchi ko'priklarning asosiy uzatmalariga taqsimlash) larga; burovchi momentni yetakchi ko'priklarga qanday nisbatda taqsimlanishiga qarab simmetrik va no simmetriklarga bo'linadi. Yarim o'qlar vazifasi va turlari. Yarim o'qlar differensialdan burovchi momentni yetakchi g'ildiraklarga uzatadi. Yarim o'qlarning tashki uchlari g'ildirak gupchagiga flanes, shponka yoki shlis yordamida ulanadi. Ichki uchi esa ko'pchilik avtomobillarda yarim o'q shesternyasi bilan shlis yordamida birlashtiriladi. Avtomobil harakatlanganda yarim o'qlarga burovchi momentdan tashqari eguvchi momentlar ham ta'sir etadi. Eguvchi momentlar avtomobilning yetakchi gildi-raklariga ta'sir etadigan kuyidagi kuchlardan vujudga keladi radial kuch (avtomobilning og'irligidan tashkil topgan reaksiya kuchi), tortuvchi kuch—R; yondan ta'sir kiluvchi kuch (avtomobil burilishida xosil bo'ladigan kuch). Yarim o'qlarni, ularni orqa ko'priqda o'rnatilish usuliga karab, eguvchi momentlardan to'la yoki qisman yuksizlantirish mumkin. Avtomobillarda ishlatiladigani uch xil, ya'ni eguvchi momentlardan yarim yuksizlantirilgan, kismga yuksizlantirilgan va tula yuksizlantirilgan bo'ladi.

Men oz bitiruv malakaviy ishimda Nexia avtomobili tezliklar qutisi kanstruksiyasini o'rganib chiqdim Nexia avtomobili uchun aylanishlar chastatasi 3800 va burovchi moment 141 deb qabul qilingan bu natijalar ikkinchi uzatma uchun yetarli lekin birinchi uzatmada og'ir yuk bilan harakatlanayotgan avtomobil uchun yetarli emas ekan shuning uchun birlamchi uzatmani uzatishlar momentni uzatish chorasini ko'rishni tekshirib ko'raman birinchi uzatma uchun uzatishlar soni 2,184 ekan

1-uzatma uchun.

Aylanishlar soni :

$$n_2 = \frac{n_1}{i_2} = \frac{3800}{2148} = 1740 \text{ min}^{-1}$$

Burovchi moment:

$$M_2 = 141 \frac{N_2}{n_2} = 141 \frac{3800}{1740} = 309,7 \text{ kN} \cdot \text{mm}$$

Burovchi mament esa $307.9 \text{ kN} \cdot \text{mm}$ ga teng ekan lekin bu burovchi mament birinchi uzatma uchun yetarli emas . Shuning uchun men aylanishlar sonini 2,483 ga oshiraman

Aylanishlar soni:

$$n_2 = \frac{n_1}{i_2} = \frac{3800}{2483} = 1530 \text{ min}^{-1}$$

Burovchi moment:


$$M_2 = 141 \frac{N_1}{n_2} = 141 \frac{3800}{1530} = 350 \text{ kN} \cdot \text{mm}$$

Natijada burovchi mamenti: $350 \text{ kN} \cdot \text{mm}$

Vallar xaqida umumiy malumot.

Vallar va o'qlar-tishli g'ildirak, shkiv va shunga o'xshash aylanuvchi detallarni o'rnatish uchun ishlatiladigan uzatmaning asosiy detallari hisoblanadi. Tuzilishi jihatdan o'qlar bilan val deyarii farq qilmaydi. Lekin bajaradigan ishiga ko'ra, ular bir-biridan farq qiladi. O'qlarning vazifasi detallarning aylanishiga sharoit yaratib berishdir. Bunda o'qning o'zi detal bilan birga aylanishi ham, aylanmasligi ham mumkin.

- Vallarning vazifasi detallarning aylanishini ta'minlash bilan birga, aylanuvchi momentni uzatishdan iborat.



(8-rasm) vallar va ularning turlari

Val va o'qlarning tuzilishi uning qanday ish bajarishiga bog'liq bo'lib, har xil ko'rinishda bo'lishi mumkin, masalan, tekis (8.a-rasm), pogonali (8.b-rasm) tirsakli (8.v-rasm), egiluvchan (8.g-rasm).

O'q faqat eguvchi kuchlanish ta'sirida, val esa eguvchi kuchlanish bilan bir vaqtda aylanuvchi momentdan hosil bo'ladigan kuchlanish ta'sirida ishlaydi.

Materiallar. Val va o'qlarni tayyorlash uchun materiallarni tanlashda uning qanday ish bajarishi, ishlash sharoiti, qayta ishlash texnologiyasi, tayyorlash hajmi va boshqa omillar hisobga olinadi. Termik qayta ishlanmaydigan vallar St5, St6 markali, termik qayta ishlanadigan vallar 45, 40X, sirpanish podshipnik tayanchlarida ishlatiladigan vallar uglerod bilan to'yintirilgan 20, 20X, 25XGT 12XN3T, 18XG markali po'lat materiallardan tayyorlash tavsiya etiladi. Val va o'qlarni gabarit o'lchamlarini kamaytirish uchun legirlangan po'lat materiallardan tayyorlanadi.

Diametrlari katta bo'lgan vallarning og'irligi kamaytirish maqsadida ularning ichi kovak qilib tayyorlanadi, bunda material miqdori 20-40% kamayadi.

Tirsakli hamda og'irligi katta bo'lgan vallar yuqori darajali mustahkam cho'yan materiallardan ham tayyorlanishi mumkin.

Vallar tokarlik stanoklarida qayta ishlanib, sapfalar jivirlanadi. Yuqori darajada yuklangan vallar butun uzunligi bo'ylab jilvirlanadi. Bunda dumalash podshipniklari uchun sapfa yuzasining notekisligi $R_a=0,16-0,32$ mkm, sirpanish podshipniklari uchun esa $R_a=0,1-0,16$ mkm bo'lishi kerak.

Valning yon tomonlarida, detallarni o'tkazishni yengillashtirish hamda ishchining ish jarayonida xavfsizligini ta'minlash uchun faska qilinadi.

Umumiy mashinasozlik sanoatida ishlatiladigan val va o'qlarning ishga layoqatliligi uning mustahkamligi va bikirligi bilan belgilanadi.


Vallarning hisoblashni boshlanishda valning o'qi bo'ylab joylashtiriladigan tishli g'ildirak, mufta, podshipnik va boshqa detallarning eni bo'yicha o'lchamlari noma'lum, faqat valga ta'sir qiluvchi aylanuvchi moment yordamida val uchining diametri aniqlanadi:

$$d = \sqrt{\frac{T}{0,2[\tau]}} \text{ mm} \quad d = \sqrt{\frac{130}{0,2 \cdot 5}} = 11,40 \text{ mm}$$

bunda: T -aylanuvchi moment, Nm; $[\tau]=5\text{-}25\text{MPa}$ -buralishdagi ruxsat etilgan kuchlanish. Taxminiy diametrga asoslanib, valning tuzilishini chamalab chizib olinadi. Bunda valning istalgan kesimidagi kuchlanishni iloji boricha bir xil bo'lishiga erishish lozim. Buning uchun valning aylanuvchi detal o'rnatilgan qismini yo'g'onroq qilib, tavanchlarga yaqinlashgan sari ingichkalashtirib borish tavsiya etiladi. Valning elektrodvigatel bilan birlashadigan diametrini tanlashda uni elektrodvigatel valiga mos. ya'ni $d=(0,8\text{—}1,2) d_{DV}$ ga keltirishni nazarda tutish lozim.

Vallarning diametrlari o'q bo'yicha aniqlangach uning o'q bo'yicha uzunligi aniqlanadi.

Vallarni ishga layoqatliligi va hisobi.



8.2-rasm.

Buning uchun valga detallar o'z o'lchamlari bilan o'tqaziladi 8.2- rasm. Bunda yulduzcha, tishli g'ildiraklarning eni uzatmalarning hisobidan olinadi. podshipnikni eni jadvaldan valning diametriga nisbatan tanlanadi. Valga hamma detallar o'tkazilgach, eguvchi va burovchi moment qiymatlarini aniqlash uchun hisobiy sxema tuziladi. Bunda val ikki tayanchlarga o'tkazilgan balka sifatida ko'riladi.

Umuman olganda val burovchi moment hamda uzatmalami ishlash jarayonida hosil bo'lgan kuchlar ta'sirida bo'ladi. Shuningdek, valning konsoi qismida muftadan qo'shimcha ravishda radial kuchlar ta'sirida bo'ladi. Tez harakatlanuvchi valda $F_m=125\sqrt{T}$ sekin harakatlanuvchi valda $F_m=250\sqrt{T}$.

Radial tasir qiluvchi kuchlar

$$F_m = 125 \cdot \sqrt{130} = 14,25 \text{ MPa}$$

Uzatmani yig'ish jarayonida qo'yilgan noaniqliklar natijasida muftalardan hosil bo'lgan qo'shimcha radial kuchlar vtulka barmoqli mufta uchun $F_m=(0,4-0,7) F_{tl}$, bunda, $F_{tm}=T/D_{UI}$ -muftadagi aylanma kuch. D_{ur} -mufta barmoqlar o'qidan o'tkazilgan Neksiya avtomobili birlamchi vali $Z=24$ $d=\textcolor{brown}{0}20,07$

$$F_{tm} = \sqrt{\frac{130}{20,07}} = 2,54 \text{ Pa}$$


Tishli mufta uchun $F_m=(0,15-0.2) F_{tm}$, bunda $F_{tm}=2T/d=2T/(mz)$; zm - tishli gardishni tishlar soni va moduli.

$$F_{tm}=2T/d=2T/(mz)=\frac{2*130}{24*\textcolor{brown}{0},83}=12,95 \text{ Pa}$$

Valga ta'sir qiluvchi kuchlarni qiymati, tayanchlar o'rtasidagi masofalar aniqlangach gorizonta va vertika tekisliklar bo'yicha tayanchdagi reaksiya qiymatlari R_A

Xavfsizlik koefitsiyentini eng xavfli sirt uchun xisoblash.

St-20x dan tayyorlangan birlamchi val xavfsizlik koefitsiyentiga xisoblash uning eng xavfli kesimiga nisbatan ko'rib chiqamis yaniy (A)-sirt bo'yicha



Bunga ko'ra:

D- $\textcolor{brown}{0}25$ $l=15$ bo'lgan shlitsa sirti;


d- $\textcolor{brown}{0}13$ $l=140,04$ bo'lgan val sirti;

Dast avval St-20x materialimiz uchun tegishli koefitsent birliklarni quyidagi (8.1-jadval)dan tanlab olamiz.

8.1-jadval

Po'lat materiallarni markasi	Tayyorlash mumkin bo'lgan eng katta diametr, mm.	Qattiqligi eng kamida $\geq NV$	σ_m , MPa	σ_{ok} , MPa	τ_{ok} , MPa	σ_{-1} , MPa	τ_{-1} , MPa
St-5	Har qanday diametr	190	520	280	150	220	130
45	Har qanday diametr	200	560	260	150	250	150
-	120gacha	240	800	550	300	350	210
-	80gacha	270	900	650	390	380	230
40x	Har qanday diametr	200	730	500	280	320	200
-	200gacha	240	800	650	390	360	210
-	120gacha	270	900	750	450	410	240
40xn	Har qanday diametr	240	820	650	390	360	210
-	200gacha	270	920	750	450	420	250
20	60	145	400	240	120	170	100
20x	120	197	650	400	240	300	160

Vallarda hosil bo'lgan kuchlanishlar o'zgaruvchan bo'lib, bunda yeguvchi kuchlanish simmetrik, burovchi momentdan hosil bo'lgan urinma kuchlanish pulsatsiya sikl bilan o'zgaradi. Valni hisoblash jarayonida sxemada, eng xavfli kesimlari ya'ni kuchlanishlar to'planadigan kesimlar (bir pog'onadan ikkinchi pog'onaga o'tadigan joylar, shponka o'rnatilgan joylar, maxsus kesikli joylar hisoblanishi kerak, masalan,



Bu hisoblash jarayonida val bir vaqtning o'zida eguvchi va burovchi moment ta'sirida bo'lganda eng xavfli kesimning xavfsizlik koeffitsiyenti quyidagicha aniqlanadi.

$$S = \frac{S_b S_\tau}{\sqrt{S_b^2 + S_\tau^2}} \geq [S] = 1,5 \dots 2,5$$

$$S = \frac{5,5 \cdot 0,81}{\sqrt{15,5^2 + 0,81^2}} = \frac{4,45}{\sqrt{12,1}} = 1,8 > 1,5 \dots 2,5$$

Bu yerda: S_a - normal kuchlanishlar bo'yicha xavfsizlik koeffitsiyenti, qiymati:

$$S_a = \frac{(\sigma_{-1})_a}{\sigma_a} = \frac{130}{33} = 3,93$$

S_τ - urinma kuchlanishlar bo'yicha xavfsizlik koeffitsiyenti, qiymati:

$$S_\tau = \frac{(\tau_{-1})_a}{\tau_a} = \frac{130}{33} = 3,93$$

bunda: σ_a, τ_a - xavfli kesimdan kuchlanishlarni amplituda sikli

$$\sigma_a = \sigma_w = \frac{M}{W} = \frac{100}{18}$$

$$\tau_a = \tau_w / 2 = T / 2W_b = \frac{130}{2 \cdot 33} = 1,96$$

$$M = \sqrt{M_x^2 + M_y^2} \quad \text{eguvchi momentning umumiy qiymati; } T$$

aylanuvchi moment; W. W_k - tekshirilayotgan kesimda o'q bo'yicha olingan qarshilik va polyar qarshilik momentlari. Bu qarshilik moment qiymatlari vollar uchun,

$$W = \frac{\pi d^3}{32} = \frac{\pi 13^3}{32} = 16,5$$

$$W_k = \frac{\pi d^3}{32} = \frac{\pi 13^3}{32} = 33$$

d/D	0,4	0,42	0,45	0,48	0,5	0,53	0,56	0,6	0,63	0,67	0,71
c	0,97 4	0,96 9	0,95 9	0,94 7	0,93 8	0,92 1	0,90 1	0,87	0,84 2	0,8	0,74 7

$(\sigma_{-1})_d$; $(\tau_{-1})_d$ -val materiallarining tekshirilayotgan kesimidagi chidamlilik chegarasi qiymatlari:

$$(\sigma_{-1})_d = \frac{\sigma_{-1}}{(K_\sigma)} = \frac{300}{2,32} = 129,3$$

$$(\tau_{-1})_d = \frac{\tau_{-1}}{(K_\tau)} = \frac{160}{1,6} = 100$$

σ_{-1} ; τ_{-1} -tanlangan material uchun oquvchanlik chegarasi 8.1-jadvaldan tanlanadi.

$\{K_a\}_d$, $\{K_r\}_d$ -tekshirilayotgan kesimda normal va urinma kuchlanishlarni to'planishni hisobga oluvchi koeffitsiyent qiymatlar:

$$(K_\sigma)_d = \left(\frac{K_\sigma}{K_d} + K_g - 1 \right) \frac{1}{K_v} = (3 + 1,25 - 1) \frac{1}{1,4} = 2,32$$

$$(K_\tau)_d = \left(\frac{K_\tau}{K_d} + K_g - 1 \right) \frac{1}{K_v} = (2 + 1,25 - 1) \frac{1}{1,4} = 1,6$$

K_σ ; K_τ - kuchlanishlarni to'planishini hisobga oluvchi koeffitsiyent.

t/r	r/d	σ_m , mPa bo'lganda K_σ ning qiymatlari				σ_m , mPa bo'lganda K_τ ning qiymatlari			
		500	700	900	1200	500	700	900	1200
2	0,01	1,55	1,6	1,65	1,7	1,44	1,4	1,45	1,45
	0,02	1,8	1,9	2,0	2,15	1,55	1,6	1,65	1,7
	0,03	1,8	1,95	2,05	2,25	1,55	1,6	1,65	1,7
	0,05	1,75	1,9	2,0	2,2	1,55	1,6	1,65	1,75
3	0,01	1,9	2,0	2,1	2,2	1,55	1,6	1,65	1,75
	0,02	1,95	2,1	2,2	2,4	1,6	1,7	1,75	1,85
	0,03	1,95	2,1	2,25	2,45	1,65	1,7	1,75	1,9
5	0,01	2,1	2,25	2,35	2,50	2,2	2,3	2,4	2,6
	0,02	2,15	2,3	2,45	2,65	2,1	2,15	2,25	2,4

Val diametrining ta'sirini hisobga oluvchi koeffitsiyent. K_d 8.2-jadval davomi.

Val materiali va holati	Val diametri d, mm				
	30	40	50	70	100
Uglerodli po'lat materiallar, egilishdagi kuchlanish hosil bo'lganda	0,88	0,85	0,81	0,76	0,71
Legirlangan po'lat materiallar, egilishdagi kuchlanish bo'lganda	0,77	0,73	0,7	0,67	0,62
Har xil markali po'lat materiallar uchun buralishdagi kuchlanish ishlatilganda					

Valga tig'izlik bilan o'tkazilganda.

8.2-jadval davomi.

Val diametri d, mm	$K_{\sigma}/K_d, \sigma_m$ MPa bo'lganda			$K_T/K_d, \sigma_m$ MPa bo'lganda		
	500	700	900	500	700	900
30	2,5	3	3,5	1,9	2,2	2,5
50	3,3	3,95	4,6	2,45	2,8	3
100	3,3	3,95	4,6	2,4	2,8	3,2

K_F - val yuzasini notekisligini o'rtacha qiymatini hisobga oluvchi koeffitsiyent.

8.2-jadval davomi.

Notekislikni o'rtacha qiymati R_a , mkm	K_F koeffitsiyent qiymatlari, σ_m mPa bo'lganda			
	500	700	900	1200
0,4–0,1	1	1	1	1
3,2–0,8	1,05	1,10	1,15	1,25
2,5–6,3	1,2	1,25	1,35	1,5

Val yuzasining termik qayta ishlanishini hisobga oluvchi koeffitsiyenti, K_g

8.2-jadval davomi.

Valning qattiqligini oshirish yoʻllari	Valni markazida σ_m mPa	Pogʻonasiz tekis val	Kuchlanish toʻplanishi boʻlgan hollarda	
			$K_b < 1.5$	$K_b 1.8-2$
Qizdirib toplash	600–800	1,5–1,7	1,6–1,7	2,4–2,8
Yuqori chastotali tok yordamida toplash (Yu.Ch.T)	800–1000	1,3–1,5		
Azot bilan toʻyintirish	900–1000	1,1–1,25	1,5–1,7	1,7–2,1
Uglerod bilan toʻyintirish	700–800 1000–1200	1,4–1,25 1,2–1,3	2	

Ilova: Val yuzasining qattiqligi oshirilmasa, $K_r=1,0$

Xisob kitoblar shuni koʻrsatdiki tanlagan St-20x materialimiz birlamchi val tattorlash uchun mustaxkamlikka sinash qoniqarli oʻtdi


$$S = \frac{S_b S_r}{\sqrt{S_b^2 + S_r^2}} \geq [S] = 1,5 \dots 2,5$$

$$S = \frac{5,5 \cdot 0,81}{\sqrt{15,5^2 + 0,81^2}} = \frac{4,45}{\sqrt{12,1}} = 1,8 > 1,5 \dots 2,5$$

Yaniy valimiz $[S]$ xavfsizlik qayfisentiga toʻla javob beradi sinash jarayonida birlamchi valning eng xavfli kesimiga nisbatan ammallar bajarildi.

Podchipnik dumalash elementlarining turlari va shartli belgilari

Dumalash podshipniklarida dumalash elementlari (10-rasm)- zoldirli (a), rolikli bo'lishi mumkin. Rolikli dumalash elementlari esa



Podchibnik turlari (10-rasm)

silindrsimon (b), konussimon (v), bochkasimon (g), ignasimon (d), maxsus o'ramli (e), roliklarga bo'linadi.

Dumalash elementlari bir qator, ikki qator va ko'p qator qilib joylanishi mumkin. Shuningdek har xil yo'nalishda ta'sir qiladigan kuchlar uchun har xil podshipniklar ishlatiladi. Masalan, val o'qiga tik ta'sir etuvchi kuchlarni qabul qilish uchun radial podshipniklar, 10.3- rasm; val o'qiga tik ta'sir qiluvchi kuchlar uchun tirak podshipniklar, 10.6-rasm val o'qiga tik hamda val o'qi bo'ylab yo'nalgan kuchlarni qabul qilish uchun radial-tirak podshipniklar (10.4, 10.5-rasmlar) ishlatiladi.


Podshipniklarni bir-biridan ajratish uchun shartli belgilar qabul qilingan, bu belgilar halqalarning yon tomoniga yozilgan bo'ladi. Shartli belgining o'ng tomonidan ikki raqam podshipnik ichki diametri d ni bildiradi. Bu ichki diametrlar 3mmdan 10mmgacha boiganda o'zaro 1mmdan farq qiladi, 20mmgacha 2-3mmdan farq qiladi (10, 12, 15, 17, 20), $d=20$ —495 mmgacha 5mmdan farq qiladi. Masalan, 706 podshipnik bo'lsa, $06 \times 5 = 30$ mmga teng bo'ladi.

Shartli belgining o'ng tomondan uchinchi raqam tashqi diametrlar bo'yicha seriyasini bildiradi, bunda juda yengil (1), yengil (2), o'rta (3). og'ir (4) seriyalarga bo'linadi. Bu seriyalarini ichki diametri bir xil, tashqi diametrlari bir- biridan katta boiadi.

Shartli belgining o'ng tomonidan to'rtinchi raqam podshipnik turlarini bildiradi, masalan:

- 0 - Bir qatorli zoldirli (0 - yozilmaydi)
- 1 - Ikki qatorli zoldirli sferik podshipniklar
